

XX ASR BOSHLARIDA “TURON” TEATR TRUPPASINING O‘ZBEK SAHNA
SAN’ATIDAGI O‘RNI

A.M. Oltiboyev

Perfect-University

Gumanitar fanlar kafedrası v.b dotsenti.

Tel.: +99891 321-69-26 e-mail: oltiboyev@perfectuniversity.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18288013>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr boshlarida o‘zbek professional teatr san’atining shakllanishida muhim o‘rin tutgan “Turon” teatr truppasining tashkil topishi va faoliyati yoritiladi. Jadidchilik harakati ta’sirida vujudga kelgan ushbu teatr jamoasining badiiy rahbariyati, ijodiy tarkibi hamda dastlabki sahna asarlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Shuningdek, “Turon” teatr truppasining o‘zbek milliy teatr san’ati taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: “Turon” teatr truppasi, jadidchilik harakati, o‘zbek teatri tarixi, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mannon Uyg‘ur, musiqali drama, milliy teatr, sahna san’ati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются формирование и деятельность театральной труппы «Турон», сыгравшей важную роль в становлении узбекского профессионального театрального искусства в начале XX века. На основе исторических источников анализируются художественное руководство, творческий состав и ранние сценические работы этой театральной группы, возникшей под влиянием движения «Джадид». Также обосновывается роль и значение театральной труппы «Турон» в развитии узбекского национального театрального искусства.

Ключевые слова: театральная труппа «Турон», движение «Джадид», история узбекского театра, Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбудий, Маннон Уйгур, музыкальная драма, национальный театр, сценическое искусство.

Abstract. This article discusses the formation and activities of the “Turon” theater troupe, which played an important role in the formation of Uzbek professional theater art at the beginning of the 20th century. The artistic leadership, creative composition and early stage works of this theater group, which emerged under the influence of the Jadid movement, are analyzed based on historical sources. The role and significance of the “Turon” theater troupe in the development of Uzbek national theater art is also substantiated.

Keywords: “Turon” theater troupe, Jadid movement, history of Uzbek theater, Abdulla Avloni, Mahmudkhodja Behbudiy, Mannon Uygur, musical drama, national theater, stage art.

XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati nafaqat ta’lim va matbuot sohasida, balki teatr san’ati rivojida ham muhim rol o‘ynadi. Ana shunday tarixiy sharoitda vujudga kelgan “Turon” teatr truppasi o‘zbek professional teatr san’atining shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi.

Ushbu maqolada “Turon” truppasining tashkil topishi, ijodiy faoliyati va milliy teatr taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi [1].

“Turon” teatr truppasi 1913-yilda Toshkent shahrida tashkil topib, milliy uyg‘onish davri g‘oyalari sahna orqali targ‘ib etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Uning badiiy rahbari ma’rifatparvar adib va pedagog Abdulla Avloniy bo‘lib, truppaning ma’naviy va moddiy jihatdan

qo'llab-quvvatlovchilari sifatida Munavvarqori Abdurashidxonov, Bashirullo Xo'jayev hamda Toshkentning boshqa mo'tabar ziyolilari faol ishtirok etganlar. Truppaning dastlabki ijodiy tarkibiga Nizomiddin Xo'jayev, Badriddin A'lamov, Shokirjon Rahimiy, Muhammadjonqori Poshshaxo'jayev, Fuzail Jonboyev, Hasanqori, Same'qori Ziyoboyev, Qudratilla Yunusiy kabi sahna namoyandalari kirgan bo'lib, 1916-yildan boshlab Mannon Uyg'ur, G'ulom Zafariy va Sulaymon Xo'jayevlarning truppga qo'shilishi teatr faoliyatining yanada yuksalishiga xizmat qilgan [3:60-61].

"Turon" teatr truppasi o'z sahna faoliyatini 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi ikki ming tomoshabinga mo'ljallangan "Kolizey" teatri binosida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi bilan boshlagan. Mazkur spektaklda bosh rollarni Abdulla Avloniy, Same'qori Ziyoboyev, Muhammadjonqori Poshshaxo'jayev va Badriddin A'lamovlar ijro etgan bo'lib, asar ozarbayjonlik aktyor va rejissyor Aliasqar Asqarov tomonidan sahnalashtirilgan. Keyinchalik, 1915-yilda "Padarkush" dramasi Nizomiddin Xo'jayev tomonidan qayta sahnalashtirilgan. Truppa repertuari ketma-ket Qudratillaning "To'y", Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" kabi ijtimoiy va ma'rifiy mazmundagi asarlar bilan boyitilib brogan [4:110].

1914–1916-yillarda Toshkentda ijodiy safarda bo'lgan ozarbayjon aktyori va rejissyori Ruhillo Sidki "Turon" truppasi a'zolari orasida musiqali drama janriga qiziqish uyg'otgan.

Ozarbayjonlarning "Layli va Majnun" spektaklida truppa a'zolarining birgalikda ishtirok etishi milliy teatr san'atida yangi janriy izlanishlar uchun muhim tajriba bo'lib xizmat qilgan [2].

Vaqt o'tishi bilan "Turon" teatri ijtimoiy ahamiyatga ega mavzular va turli sahna janrlarini qamrab olgan keng repertuar yaratish imkoniyatiga ega professional teatr jamoasi darajasiga ko'tarildi. Teatr Toshkentning eski va yangi shahar qismlarida joylashgan qishlik va yozlik binolarga ega bo'lib, "Pinak" (Abdulla Avloniy), "Mazluma xotin" (X. Muin), "O'liklar" (M. Qulizoda) kabi asarlar bilan o'z repertuarini yanada boyitdi [5].

1917-yil Oktyabr to'ntarishidan so'ng "Turon" teatri hukumat ixtiyoriga olinib, unga davlat teatri maqomi berildi va keyingi yillarda turli nomlar ostida faoliyat yuritdi. Ushbu davrda Mannon Uyg'ur teatrning yetakchi ijodkori va badiiy rahbari sifatida uning rivojiga katta hissa qo'shdi. Umuman olganda, "Turon" teatr truppasi o'zbek jadid teatrining shakllanishi, milliy dramaturgiya va aktyorlik maktabining rivojida mustahkam poydevor yaratgan tarixiy ahamiyatga ega ijodiy jamoa sifatida e'tirof etiladi [3:68-69].

Xulosa qilib aytganda, "Turon" teatr truppasi XX asr boshlarida o'zbek professional teatr san'atining shakllanishida muhim va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy jamoa hisoblanadi. Jadidchilik harakati g'oyalari asosida tashkil topgan ushbu truppa sahna san'atini ma'rifiy, ijtimoiy va tarbiyaviy vazifalarni bajaruvchi vosita sifatida rivojlantirishga intildi. "Turon" teatr truppasi faoliyati orqali milliy dramaturgiya, aktyorlik ijrosi va sahna madaniyatining dastlabki professional asoslari yaratildi. Truppaning repertuar siyosati zamon muammolarini yoritishga qaratilgan bo'lib, bu holat teatrning jamiyat ongiga ta'sir doirasini kengaytirdi. Ozarbayjon teatr maktabi bilan ijodiy aloqalar natijasida musiqali drama janrining kirib kelishi va rivojlanishi esa milliy sahna san'atining janriy imkoniyatlarini boyitdi. 1917-yildan keyin "Turon" teatrining davlat teatri maqomiga ega bo'lishi uning faoliyatini institutsional jihatdan mustahkamlab, keyingi davr o'zbek teatr san'ati taraqqiyoti uchun barqaror poydevor yaratdi.

Umuman olganda, “Turon” teatr truppasi o‘zbek milliy teatrining shakllanishi va rivojida muhim bosqich bo‘lib, uning ijodiy merosi bugungi teatrshunoslik tadqiqotlari uchun dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Jadid” gazetasi 2024-yil 8-mart 11-son
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2006.
3. Ризаев Ш. Жадид драмасы. Т.: Шарқ. 1997. 320 б.
4. “Шарқ юлдузи” журналы. 1992. 5-сон.
5. <https://jadid.uz/turon-sanoyi-nafisa-ittifoqi/>